

TAYYORLOV GURUHLARIDA TADQIQIY BILISH VA SAMARALI REFLEKSIV FAOLIYATINI TASHKIL ETILISHNING AMALDA QO'LLANILISHI

Jo'rayeva Mohinur Salim qizi

Termiz Davlat Pedagogika Instituti

2- kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7975061>

Annotatsiya: Maktabgacha yoshidagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, xayol, hissiyot va irodaning rivojlanishi jadal kechadi. Bola ranglarni hali bir-biridan yaxshi farq qila olmaydi. Shuning uchun ham ushbu maqolani yozishga qaror qildik.

Kalit so'z: bilish, sezgi, idrok, bola, o'yin, faoliyat, akseleratsiya, psixika, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, xayol, hissiyot, iroda

O'zbekiston Respublikasini rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashini ta'minlash, yosh avlodning komil inson bo'lib kamol topishiga bevosita bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2017 yil 16 avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda maktabgacha ta'limtizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yildi. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev bu tizimni chuqur tahlil qilib, shu paytgacha nazardan chetda bo'lgan masalarga e'tibor qaratdi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlari va o'quv- tarbiyaviy rejalariga qo'yilgan davlat talablarini takomillashtirish dolzarb masalaligicha qolayotganligi aniqlandi. Ko'pchilik maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy texnika bazasi zamon talablariga javob bermasligi, bolalarni maktabgacha ta'limga qamrab olish ko'rsatgichi pastligi, oliy ma'lumotli kadrlarning yetishmasligi kabilar kuzatildi. Bola rivojlanish jarayonida kishilik avlodi tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo'lga qiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o'zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni, tili, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarining o'sib borish, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i kerak, asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan, tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o'zlashtirish, elementar gigiyena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki ko'rtaklarini hosil qilish davridir. Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning maktabgacha yoshidagi davri shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda harakter xususiyatlarining namunalari shakllanib, axloqiy harakterning asoslari yuzaga keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ko'zga tashlanib o'quvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqiddanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko'rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaliligidan toliqadi. Maktabgacha ta'lim tashkilot yoshidagi bolalarning xayoli asosan, ularning turli-tuman o'yin faoliyatlarida o'sadi. Biroq, shu narsa diqqatga sazovorki, agar maktabgacha ta'lim tashkilot yoshidagi bolalarda xayol qilish qobiliyati bo'lmaganda edi, ularning xayoli ham xilma-xil bo'lmas edi. Maktabgacha ta'lim tashkilot yoshidagi bolalarning xayollari turli xil mashg'ulotlarda ham o'sadi. Masalan, maktabgacha ta'lim tashkilot yoshidagi bolalar loydan turli narsalar yasashni, qumdan turli narsalar qurib o'ynashni va rasm solishni yaxshi

ko'radilar. Ana shunday mashg'ulotlar bolalar xayolining o'sishiga faol ta'sir qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilot yoshidagi bolalar xayolining o'sishiga faol ta'sir qiluvchi omillardan yana biri - ertaklardir. Bolalar hayvonlar xaqidagi turli ertaklarni eshitganlarida shuertaklardagi obrazlarga nisbatan ma'lum munosabatlari yuzaga keladi, Maktabgacha ta'lim tashkilot yoshidagi bolalar hissiyoti va uning o'sishi. Maktabgacha ta'lim tashkilot yoshidagi bolalarda yoqimli va yoqimsiz his-tuyg'ular g'oyat kuchli va juda tez namoyon bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarning his-tuyg'ulari kun jihatdan ularning organik ehtiyojlarining qondirilishi va qondirilmaslgi bilan bog'liqdir. Bu ehtiyojlarning qondirilmaslgi sababli bolada noxushlik (yoqimsiz), norozilik, iztiroblanish tuyg'ularini qo'zg'aydi. Katta maktabgacha ta'lim tashkilot yoshidagi bolalarda burch hissi -«nima yaxshi-yu», «nima yomon»ligini anglashlari bilan ulaming axloqiy tasawurlari orasida bog'liqlik bor. Katta odamlar tomonidan buyurilgan biron topshiriqni bajarganlarida mamnunlik, shodlik tuyg'ulari paydo bo'lsa, biron tartib qoidani buzib qo'yganlarida xafalik, ta'bi xiralik hissi tug'iladi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilot yoshidagi bolalarda ma'naviy hissiyotlardan o'rtoqlik, do'stlik va jamoatchilik hislari ham yuzaga kela boshlaydi. Bolaning maktabgacha ta'lim tashkilot yoshidagi davrida estetik hissiyotlari ham ancha tez o'sadi. Maktabgacha ta'lim tashkilot yoshidagi bolalarda estetik hislaming namoyon bo'lishini, ayniqsa, ulaming chiroyli, yangi kiyim-bosh kiyganlarida juda yaqqol ko'rish mumkin

Tajriba-sinov ishlarining maxsus dastur asosida tashkil etilishi esa ularning muvaffaqiyatli va samarali yakunlanishini kafolatlaydi. Mazkur fikrga tayangan holda tadqiqotni olib borish davrida dastlab « Maktabgacha yoshdagi bolalarda tadqiqiy bilish va samarali refleksiv faoliyatini tashkil etish » nomli maxsus dasturning ishlab chiqilishi nazarda tutildi. Manbalarda qayd etilishicha, tajriba-sinov dasturini tayyorlashda quyidagilar inobatga olinishi lozim:

1. Taklif qilinayotgan yangilikning dolzarbligini asoslash.
2. Tajriba-sinov obyektini aniqlash.
3. Tajriba-sinov maqsadini belgilash.
4. Tajriba-sinovni o'tkazish metodikasini va metodlarini belgilab olish.
5. Tajriba-sinov muddati va bosqichlarini belgilash.
6. Kutilayotgan natijalarni baholash mezonlarini ishlab chiqish.

Dastlab tajriba-sinov ishlarining maqsadi, asosiy bosqichlari, ularda hal etilishi lozim bo'lgan vazifalar aniqlab olinib, kutiladigan natijalar bashoratlandi. Tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi katta maktabgacha yoshdagi bolalarda tadqiqiy bilish va samarali refleksiv faoliyatini tashkil etishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni o'rganish orqali tarbiyachilarni zarur bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat qilib belgilandi. Amaliy faoliyat jarayonida quyidagi vazifalarni bajarish yuqorida qayd etilgan maqsadga erishish imkonini beradi, degan xulosaga kelindi:

- 1) Tarbiyachilar o'rtasida anketa so'rovini tashkil etish asosida ulaming katta maktabgacha yoshdagi bolalarda tadqiqiy bilish va samarali refleksiv faoliyatini tashkil etishga oid nazariy va amaliy bilimlarga egaliklarining mavjud darajasini o'rganish;
- 2) Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tadqiqiy bilish va samarali refleksiv faoliyatini tashkil etish, bu jarayonda alohida faollik ko'rsatish orqali tarbiyalanuvchilarga yordam berishga doir xohish-istak va rag'batni yuzaga keltirish;

4) Tarbiyachilar o'rtasida pedagogik faoliyat va uni samarali tashkil etishga doir nazariy bilimlarni targ'ib qilish;

5) Maktabgacha yoshdagi bolalarda tadqiqiy bilish va samarali refleksiv faoliyatini tashkil etishga oid ko'nikma va malakalami shakllantirish;

6) Maktabgacha katta yoshlilarda tadqiqiy bilish va samarali refleksiv faoliyatini tashkil etish borasidagi bilim, amaliy ko'nikma va malakalami yanada boyitish maqsadida ular uchun maxsus tavsiyanomalarni tayyorlash.

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi va har bir bosqichda muayyan ishlar bajarildi. Tajriba-sinov ishlarining bosqichlari va ularda amalga oshirilgan vazifalar.

Bosqichlar:

I. Tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi

II. Asosiy bosqich

III. Yakuniy bosqich

Amalga oshirilgan vazifalar:

1. Tajriba-sinov ishlarining maqsad va vazifalari belgilandi.

2. Tajriba-sinov maydonlari belgilandi.

3. Tarbiyachilar orasidan tajriba-sinov ishlariga jalb etiluvchilar tanlandi va ular tasodifiy tanlov yo'li bilan tajriba hamda nazorat guruhlariga birlashtirildilar.

3. Anketa so'rovlarini tashkil etish asosida tarbiyachilarning pedagogik faoliyat asoslaridan xabardorlik darajasi o'rganildi.

4. Tajriba guruhlarida qo'llash uchun maxsus dastur va dasturning maqbullik darajasi o'rganildi.

Menimcha, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning tadqiqiy bilish faolligini rivojlantirish bo'yicha birgalikdagi faoliyatda eksperiment o'tkazish orqali amalga oshirilgan ishlar tizimi o'zining izchilligi va samaradorligini isbotladi, chunki maqsadga erishildi va vazifalar hal qilindi.

Ish natijalari tanlangan strategiyaning samaradorligini ko'rsatadi. Tarbiyachilar, bolalar va ota-onalarning hamkorligi va ijodkorligi tufayli belgilangan maqsadga erishish va vazifalarni hal qilish mumkin bo'ldi.

* Asosiy xususiyatlar va hodisalar bilan tanishish orqali bolalarning atrofdagi dunyo haqidagi g'oyalari kengaytirildi.

* Tabiiy – ilmiy va ekologik tushunchalarning asoslari, dunyoni yaxlit ko'rish shakllangan.

„Ilm-fan va tabiat“ markazida maktabgacha yoshdagi bolalarda tadqiqiy bilish va samarali refleksiv faoliyatini tashkil etish bo'yicha tashkil etilgan pedagogik tajriba - sinov ishlari bilimlarni o'zlashtirish, bevosita ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi. Bunday tajribalar maktabgacha yoshdagi bolalarda tadqiqiy bilish va samarali refleksiv faoliyatini tashkil etishga bo'lgan qiziqishlarni oshiradi, ularda bilimlarni o'zlashtirishga ishtiyoq uyg'otib, mustaqil fikrlash qobiliyatlarining shakllanishiga yaqindan yordam beradi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 6(766)-son. – 70-modda

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 9 сентябрдаги “�збекистон Республикасида мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш бўйича” ПҚ-3261-сон қарори
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: Darslik. – T., 2012. – 196 b.
4. Hikmatullaevna, M. K. (2022). DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVITY AS A PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL PROBLEM. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(10), 571-574.
5. Kuvvatova, M. (2022). DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVITY AS A PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL PROBLEM. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(10), 665-670.
6. Quvvatova, M. H., & Ibrohimova, K. A. (2021). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH VOSITALARI. *Студенческий вестник*, (16-7), 71-73.
7. Quvvatova, M. (2022). PEDAGOGIK TA'LIMNING BO'LAJAK BAKALAVRLAR KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH KONTEKSTIDA TAYYORLASHDAGI KASBIY XUSUSIYATLAR. *Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar*, 1(27), 29-31.
8. Quvvatova, M. (2022). LEARNING TO DEVELOP THE CREATIVITY OF HIGHER EDUCATION STUDENTS. *Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot*, 1(28), 131-134.
9. Quvvatova, M. (2022). OLIY TA'LIM TALABALARINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI. *Академические исследования в современной науке*, 1(19), 236-239.
10. Quvvatova, M. (2022). WAYS OF DEVELOPING CREATIVE ABILITIES OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Models and methods in modern science*, 1(18), 4-7.
11. Quvvatova, M. H., & Alisherova, S. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING NUTQINI O'STIRISHDA LUG'AT ISHINING AHAMIYATI. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(3), 472-474.
12. X Nuritdinova “MAKTABGACHA TAYYORLOV YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI” *Евразийский журнал академических исследований* 2022/3/17 <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/1492>
13. X Nuritdinova “SHAXSNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY VAZIFALARI” *Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar* 2022/12/15 <https://zenodo.org/record/7445514>
14. Nuritdinova X. N. KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNING MOHIYATI VA UNING MUTAXASSISNI KASBIY SHAKLLANISHIDAGI O'RNI // *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*. – 2022. – T. 1. – №. 7. – C. 158-160.
15. X Nuritdinova. “MULOQOT MUAMMOLARIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNING MAZMUN TAVSIFI” «*zamonaviy Dunyoda Innovatsion Tadqiqotlar: Nazariya Va Amaliyot*» *Nomli Ilmiy, Masofaviy, Onlayn Konferensiya*, 1(28), 135–137. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7445534>